



SHE'RIYAT ORTIDAGI QAHRAMON

*"TIQXMMI" MTUning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
3-bosqich talabasi
Mulkamalov Sobir*

Annotatsiya: Me'mor maqbaralar me'mori, dahosi bo'lsa shoir insonlar qalbi me'mori ,shifokori va egasidir . Bu tariflarning bari buyuk shoir Abdulla Oripovda mujassam edi. Abdulla Oripov ko'rinishidan oddiy ammo o'z ijodi bilan buyuk shaxsdir.

Kalit so`zlar: asarlari, ijod yo'li, she'rlari


Abdulla Oripov haqida kino ishlasak arziydi, albatta! Men u insonni yaxshi tanirdim, ko'p hamsuhbat bo'lganman. Bitta she'r yozish uchun o'nta kitob o'qirdilar.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbek adabiyoti buyuk shoir va shoiralarga makon desak mubolag'a bo'lmaydi . Shoir o'z ichki hissiyotlari bilan bir qatorda xalq dardi va uning ichki hissiyotlarini ham namoyan etib berguvchi insondur.Mana shunday zotlardan biri buyuk qalam sohibi o'chmas tarix va izga ega qashqadaryo farzandi Abdulla Oripovdir.

Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. 1958 yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan Oripov Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirib, uni ham 1963 yilda imtiyozli diplom bilan yakunlaydi. «Yosh gvardiya» (1963-69), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida muharrir (1969-74), «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri (1974-76), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi (1976-82), mas'ul kotib (1985-88), Toshkent viloyat bo'limida mas'ul kotib (1982—83), «Gulxan» jurnalida muharrir (1983-85), 1996 yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Shoir va jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O'zbekistonne» singari dastlabki she'rlari talabalik yillarida yozilgan va o'zbek she'riyatiga yangi, iste'dodli, o'ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergen. Ko'p utmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she'rlar to'plamining nashr etilishi she'riyat muxlislarida paydo bo'lgan shu dastlabki tasavvurning to'g'ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O'zbekiston» (1971), «Xotiro», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma»





(1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she'riy kitoblari nashr etilgan.

Oripov o'zbek she'riyatiga o'tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki she'rlaridan boshlab milliy she'riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo'lida ijod qildi; turmushda paydo bo'la boshlagan yangicha qarashlar, kishilarning ruhiy olamidagi evrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo'lgan ehtiyoj Oripov she'rlarining g'oyaviy mundarijasini belgilab berdi.

Oripovning dastlabki she'rlaridagi romantik kayfiyat asta-sekin o'z o'rnini falsafiy mushohadalarga bo'shatib, shoirning hayotda ro'y berayotgan voqealarni hodisalarga munosabati faol tus oldi. Shu ma'noda «Tilla baliqcha», «Qo'riqxona», «Genetika», «Olomonga» kabi she'rlar Oripovning lirk she'riyat ufqlarini hayot muammolari tasviri hisobiga kengaytirib borayotganidan darak berdi. Xuddi shu narsa Oripovning doston janriga murojaat etishi va liro-epik tasvir imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga sababchi bo'ldi. Abdulla Oripov «Jannatga yo'l» (1978), «Hakim va ajal» (1980), «Ranjkom» (1988) kabi dostonlarida ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berib, kishilarning ruhiy olamidagi ayrim qusurlar bilan ilmiy-texnik taraqqiyot va tafakkurning parvozi o'rtasidagi ziddiyatni ochib tashladi.

Umuman, Oripovning she'r va dostonlarida olg'a surilgan ma'naviy muammolar mustaqillik davrida, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etib, shoirning xuddi shu masalalar tasvirida o'z davriga nisbatan (ularning aksari 90-y.larga qadar yozilgan) ilg'orlab ketganini namoyish etdi. Uning ijodida, bir tomonidan, G'afur G'ulom lirkasiga xos falsafiylik ko'zga tashlansa, ikkinchi tomonidan, Hamid Olimjon she'rlariga xos musiqiy raxonlik va badiiy soddalik aks etib turadi. Mazkur 2 manba Oripov she'rlarida o'zaro tutashgan holda orifona she'riyatning asosiy xususiyatlarini ifodalab keladi.

Abdulla Oripov o'z davrining eng buyuk qaxramonaridan bo'ldi, u yozgan asarlar insonlar qalbiga sevinch dardli qalblarga esa darmon bo'ldi.

Shu o'rinda senat a'zosi Abdurahim Erkayevning unga yozgan tarifini eslab o'tmasak bo'lmaydi.

Abdulla Oripov o'zbek xalqining erka shoiri edi. Taqdir uning manglayiga ogir sinovlarga, hasad ig'vega, saved davrida mafkuraviy idoralar taziqiga duch kelish qatorida ularning o'rnini qoplaydigan tovon sifatida halqning suyukli, erka farzandi sifatida bo'lishni ham tuygan ekan.


Katta kichik rasmiy mansabdor shaxslaru, qarindosh urug'lar hama (ayrim mansabdor shaxslar, hasadgo'y hamkasbleri, ayrim guruhboz kimsalardan tashqari) hamma uning injiqliklarini ko'tarar edi.

U 1992-yilda "muloqot" deb nomlangan she'rida shunday yozgan edi.

Baxtsizman, toleim kulmaydi,

Onajon, qoshinga ketayin.

Ketganlar hech qaytib kelmaydi,





Bardosh qil, deyman oh netayin...
Chorlasang, madadkor bo'lolsang,
Visoling ruhimni shod etar.
Sen ham gar yo'qlikka yol olsang.
Borliqda kim meni yod etar.

Bu she'rni Abdulla Oripov 1992- yilda yozgan. Shu yili uning ham xalqning ham kayfiyati ko'tarinki edi. Vatan mustaqillika erishgan, odamlarda hamma narsa yaxshi bo'lishiga ishonch baland. Shoir O'zbekiston madhiyasi ustida ishlamoqda vaho kazo. Ana shunday kunlarda ham onasini eslasa, yuragi zirqirab, sog'inchi onasi tomon tortgan.

Abdulla Oripov - ardoqli o'zbek shoiri va jamoat arbobi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy o'ziga xos betakror kuylagan taniqli ijodkor. Oripov hozirgi o'zbek she'riyatiga yangicha badiiy tafakkur yo'sinlarini olib kirdi. U tub mohiyati bilan Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, G'afur G'ulom singari ijodkorlar badiiy an'analarining davomchisi hisoblanadi. Shoir O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi she'ri muallifidir.

Abdulla Oripov she'riyati, xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e'tirof etganidek, o'zbek poeziyasida muhim o'ringa, katta salmoqqa ega bo'lgan she'riyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahim Erkayev. Abdulla Oripov fenomeni maqolasi - «*Sharq yulduzi*» jurnali, 2018 yil, 3-4-5-sonlar

2. Абдулла Орипов. Юзма-юз. — Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1978.

daryo.uz/2022/04/22/prezident-abdulla-oripov-hayoti-va-ijodiga-bagishlangan-film-olish-boyicha-topshiriq-berdi

